



BOSHQARUVNING UMUMIY VA ANIQ FUNKTSIYALARI: MOHIYATI VA TURKUMLASH MEZONLARI

Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich

*Namangan muhandislik-texnologiya instituti “Menejment” kafedrasи dotsenti,
i.f.n.*

Raximov Asadbek Axadbek o'g'li

Namangan muhandislik-texnologiya instituti menejment yo'nalashi talabasi

Kirish

Ma'lumki, har qanday darajadagi boshqaruv jarayoni doimo faol yoki mo'tadil ravishda faoliyat yuritishga harakat qiladi. Chunki faoliyatni maqbul olib borilmasligi boshqaruvning tabiatи va maqsadiga to'g'ri kelmaydi. SHundan kelib chiqib, har qanday boshqaruvning mohiyati eng avvalo, uning faoliyatida, funktsiyalarida namoyon bo'ladi. Boshqaruvning faoliyat sohalari xilma xil bo'lganligini hisobga olib, uning faoliyatining bosh yo'nalishlarini alohida ajratish zarurati kelib chiqqan. Biroq boshqaruv funktsiyalarida faqat uning mohiyati o'z ifodasini topadi, deb o'ylash xato bo'lar edi. Bunda muayyan davrdagi o'ziga xos jixatlari, boshqaruvni amalga oshirish hamda boshqarishning alohida xususiyatidan kelib chiqadigan maqsad va vazifalarini aslo esdan chiqarmaslik kerak. SHu bilan birga jamiyat, korxona va tashkilotlarning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishi va bu boradagi vazifalarni bajarishi bevosita uning faoliyati ya'ni funktsiyalari bilan bog'liqdir.

Boshqaruv faoliyatini tadqiq etish uning bajaradigan funktsiyalarini chuqr o'rganish, ularni guruhlarga ajratish, mazkur funktsiyalardagi o'ziga xoslikni o'rganishni taqazo etadi. Bu o'rganilayotgan mavzuning dolzarbligini ifodalaydi.

Asosiy qism

Dastlab "funktsiya" va "vazifa" iboralarining lug'aviy ma'nosi to'g'risida ikki og'iz so'z yuritsak. *Funksiya* lotincha *functio* so'zidan olingan bo'lib, bajarish, amalga oshirish ma'nolarini bildiradi. Har qanday hodisaning mohiyati uning funktsiyalarida ifodalanadi, ya'ni hal qilish uchun mo'ljallangan vazifalar. Har bir nazorat funktsiyasining mazmuni ushbu funktsiya doirasida bajariladigan vazifalarning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Shuning uchun ishlab chiqarishning murakkabligi va uning vazifalari boshqaruvning butun murakkabligini va uning funktsiyalarini belgilaydi.

"*Vazifa*" - bu amalga oshirilishi, hal qilinish lozim bo'lgan masala, erishilishi lozim bo'lgan, ko'zda tutilgan maqsad. Yoki biror-bir topshiriq, xizmat, yumush, xizmat lavozimi, mansab, amal demakdir.

"Funktsiya" tushunchasi "*vazifa*" tushunchasiga nisbatan torroq ma'noga ega. Zero, funktsiya faqat o'z faoliyat doirasidagi vazifalarni o'z ichiga oladi.



Masalan, marketologning ishini bajarish korxona muhandisining funktsiyasiga kirmaydi, chunki u shu bevosita marketolog faoliyati doirasidagi yumushdir. "Vazifa" esa o'z faoliyat doirasidan tashqarida ham bo'lisi mumkin.

Boshqarish funktsiyasi deganda u yoki bu ob'ektni boshqarshiga oid aniq vazifalar nn hal etishga qaratilgan bir turdag'i ishlar majmui tushuniladi. Demak, boshqaruv muayyan funktsiyalar orqali amalga oshiriladi. Funktsiyalarni aniqlash, ularning mohiyatini ochish va o'rganish boshqaruv jarayonini to'g'ri tashkil qilishning muhim shartidir.

Boshqaruv funktsiyalari - ko'p qirrali tushunchadir. Shu sababli ularni muhim belgilar bo'yicha turkumlarga ajratib o'rganish zaruriyati tug'iladi.

1-jadval

Boshqarish funktsiyalarining turkumlanishi

T.R.	Mazmuni mohiyatiga ko'ra va	Boshqarish funktsiyalarining guruhlari
1	Qo'llanish ko'lamiga qarab	- umumiy (asosiy) funktsiyalar - aniq funktsiyalar
2	Faoliyat turlariga qarab	- iqtisodiy funktsiyalar - sotsial funktsiyalar - ma'naviy-ma'rifiy funktsiyalar - tashkiliy funktsiyalar
3	Ob'ektni qamrab olishga qarab	- hududiy funktsiyalar - tarmoq funktsiyalari
4	Mehnat taqsimoti belgisiga qarab	- rahbar funktsiyalari - bo'ysunuvchi funktsiyalari.

Boshqaruv funktsiyalarining mohiyati, tasnifi va mazmunini o'rganish boshqaruvning butun jarayonini tartibga solib turish uchun zarurdir, chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, boshqaruv mazmuni jarayon sifatida uning funktsiyalarida namoyon bo'ladi.

Boshqaruvning *umumiy funktsiyalariga*: rejalshtirish, tashkil qilish, tartibga solish va muvofiqlashtirish, nazorat, rag'batlantirshi (motivlashtirish) va marketing kiradi.

Rejalshtirish. Uning umumiyligi xususiyati shundaki, bunda har bir boshqaruv xodimi o'zining shaxsiy ishini rejalshtiradi, o'z ish joyidagi faoliyati ko'satkichlarini ishlab chiqadi, rejalarни qanday bajarayotganini nazorat qilishni uyushtiradi. *Tashkil qilish*. Bu funktsiya boshqaruv ob'ekti doirasida barcha boshqariluvchi va boshqaruvchi jarayonlarning uyushqoqligini ta'minlaydi. Shu nuqtai-nazardan tashkil qilish ichki va tashqi shart-sharoitlarning o'zgarib turishiga qarab, amaldagi tizim tarkibini takomillashtirish yoki yangisini tuzish demakdir. *Muvofiqlashtirish va tartibga*



solist. Rejalahtirish boshqarishning strategiyasi hisoblansa, muvofiqlashtirish boshqarishning taktik masalalarini hal qiladi. *Nazorat.* Bu funktsiyaning maqsadi “tutib olish”, “aybini ochish”, “ilintirish” emas, balki boshqaruv ob'ektida sodir bo'layotgan jarayonlarni hisobga olish, tekshirish, tahlil qilish va ma'lum tartibda shu ob'ekt faoliyatini o'z vaqtida sozlab turishdir. *Nazorat* o'rnatilgan me'yoriy hujjatlardan, rejaldan og'ishlarni, ularning joyi, vaqt, sababi va xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. *Rag'batlantirish (motivlashtirish).* Bu kishilar harakatiga maqsad va yo'naliш beradi. Ayniqsa, ishlovchilarni faollashtirish, ularni ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun samarali mehnat qilishga undash va jalb qilish maqsadlariga ega. *Marketing.* Bu funktsiyalar firmani boshqa aniq funktsiyalari, ya'ni ishlab chiqarish, kadrlar, moddiy texnika ta'minoti, moliyaviy, buxgalteriya hisobi funktsiyalari bilan birga amalga oshiriladi. Marketing tarkibiga bozorni o'rganish, iste'molchi buyurtmasiga ko'ra mahsulotlar assortimentini rejalahtirish, bozorni egallah, reklama, tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetkazib berish bilan bog'liq tadbirkorlik faoliyati kiradi.

Demak, boshqarish rejalahtirishdan boshlanib, faoliyatni tashkil qilish, uni rarbatlantirish bilan davom ettirilib, nazorat va marketing bilan tugaydi. Bu yerda muvofiqlashtirish barcha funktsiyalar jarayonida o'z aksini topadi.

Boshqarish funktsiyasini tasniflashning ikkinchi yondoshuvida boshqarish ishini aniq ijrochilar bo'yicha taqsimlashga ustuvorlik beriladi. Bunda bir ***butun aniq funktsiyalar tizimi*** ajratiladi. Masalan, zamonaviy g'arb firmalarida ishlab chiqarishga oid 20-25 tadan kam bo'lмаган funktsiyalar ajratiladi. Bular quyidagilardir: asosiy ishlab chiqarishni boshqarish, qo'shimcha ishlab chiqarishni boshqarish, ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi ishlab chiqarishni boshqarish, marketingni boshqarish, moliyaviy boshqarish, sifatni boshqarish, mehnatni boshqarish, xodimlarni boshqarish, inovatsiyani boshqarish va hokazolar.

Bunday holda ishlab chiqarishni boshqarish faoliyatining ayrim turlari va sohalari alohida ajralib turadi.

Boshqarish faoliyatining turlariga ko'ra, funktsiyalar quyidagicha bo'ladi:

–***boshqarishning iqtisodiy funktsiyalari***, ya'ni: mablag'larning doiraviy aylanishini amalga oshirish; mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish; marketing xizmatini uyushtirish; foyda olishni ta'minlash va hakazolar.

–***boshqarishning sotsial funktsiyalari***, ya'ni: mehnat sharoitini yaxshilash; xodimlarning uy-joyga ehtiyojini, sotsial madaniy-ma'naviy ehtiyojlarni qondirish; moddiy rag'batlantirishni ta'minlash; ijtimoiy himoyani taminlash va hakazolar.



- **boshqarishning ma'naviy-ma'rifiy funktsiyalari**, ya'ni: xodimlarni insoniylik, yaxshilik, mehr-shafqatli va o'zaro munosabatlarda sabr-toqatli bo'lish ruhida tarbiyalash; xodimlarni Vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, halollikni, adolat tuyg'usini, bilim va ma'rifatga intilishni tarbiyalashga xizmat qilish va hakazolar.

- **boshqariishning tashkiliy funktsiyalari**, ya'ni: ishlab chiqarishni tashkil qilish; o'zaro aloqalarni o'rnatish va muvofiqlashtirish; barcha bo'g'in va bo'limlar o'tasida vazifalar taqsimoti, vakolat va boshqarish apparati xodilari o'tasida masuliyatlarni belgilash; boshqarishning aniq uslubini tanlash va qaror qabul qilishda ish tartibi izchilligi, axborotlar oqimini tashkil qilish va hakazolar.

Qayd qilingan funktsiyalar bir-biri bilan bog'liq va ma'lum darajada tartibga solingan ko'p unsurlardan, tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ular yaxlitlikka ega. Shuning uchun ham boshqarish jarayonida ularning birortasi ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

Boshqarishning funktsiyalaridan yana biri - bu **tarmoqni boshqarish** bilan **hududiy boshqarishning** mutanosibligini ta'minlashdir. Har bir korxona qandaydir bir tarmoqqa (sektor tarkibiga) kiradi. Ayni vaqtida u bir tuman hududida joylashganligi jihatidan mahalliy ishlab chiqarish - hududiy majmuiga kiradi. Boshqarish jarayonida bu funktсиya ham hududiy, ham tarmoq manfaatini ko'zda tutishi lozim. Tarmoqqa doir bo'lgan boshqaruv funktsiyalar zarur. Busiz tarmoq "yo'qoladi", yagona texnik va texnologiya siyosatini amalga oshirish va butun tarmoqqa taalluqli boshqa masalalarni hal etish qiyin bo'ladi.

Biroq, ayni vaqtida, boshqarishning *hududiy funktsiyaları* ham zarur. Bu funktsiya muayyan tuman, viloyat hududida joylashgan turli tarmoqlar (sektorlar)ga qarashli korxonalar faoliyatini muvofiqlashtiradi, ratsional aloqalarni o'rnatalishini ta'minlaydi. Hududiy funktsiyalar idorachilik g'ovlarini yo'qotish, noratsional tashuvlarni kamaytirish va pirovard oqibatda samaradorlik darajasini oshirish imkoniyatini beradi.

Boshqarishning o'ziga xos aniq funktsiyaları deganda muayyan boshqaruv organiga va uning boshqaruvchisiga aniq biriktirilgan ishlar, mas'uliyat, maqsad va unga erishish vositalari majmui tushuniladi.

2-jadval

Boshqaruvning o'ziga xos funktsiyaları

R	Bo'limlar	Aniq funktsiyalar
.	Korxona	<ul style="list-style-type: none"> -hukumat qarorlarini korxona faoliyatiga izchillik bilan tadbiq qilishni ta'mirlash; -davlat byudjeti, buyurtmachilar, yetkazib beruvchilar oldidagi majburiyatlarning bajarilishiga javob berish;



		-korxona faoliyatini tashkil qilish, uni muvofiklashtirish, nazorat qilish va hakazolar.
	Reja-iqtisod bo'limi	<ul style="list-style-type: none"> - joriy va istiqboldagi rejalar loyihasini tayyorlash; - biznes-rejani tuzish; - moddiy va mehnat harajatlari me'yorlarini ishlab chiqish; - texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish; - ishlab chiqarish bo'yicha hisobot tayyorlash va hakazolar.
	Kadrlar bo'limi	<ul style="list-style-type: none"> - korxonani ma'lum kasb va mutaxassislikka ega bo'lgan ishchi va xizmatchi kadrlar bilan ta'minlash; - ishlab chiqarish ta'limi va malaka oshirishni uyushtirish; - kadrlar kunimsizligini o'rganish; - mehnat intizomining holati, ichki tartib qoidalariiga rioya qilishni nazorat qilish va hakazolar.
	Buxgalteriya bo'limi	<ul style="list-style-type: none"> - pul mablag'larini to'g'ri sarflanishini nazorat qilish; - hisobga olish va hisobot tuzishni uyushtirish; - buxgaletriya balanslarini tuzish; - xodimlarga ish haqi tulash bo'yicha hisob-kitob qilish; - moliyaviy faoliyatni tashkil qilish; - byudjet, bank yetkazib beruvchilar, iste'molchilar bilan hisob-kitob olib borish va hakazolar.
	Marketing	<ul style="list-style-type: none"> - xaridorlar ehtiyojini o'rganish va aniqlash; - narxning faoliyatini xaridorlar ehtiyojiga moslashtirish; - talab va taklif to'g'risida olingan ma'lumotlar asosida bozorni o'rganish; - tovar yaratuvchi yoki uni sotuvchi narx tadqiqotlarini amalga oshirish uchun ma'lumotlar toplash va tahlil qilish; - toldiruvchi va o'rmini bosuvchi tovarlar to'g'risida axborot yig'ish; - tovarlarga bo'lgan talabni istiqbollash, ularni amlaga oshirishni nazorat qilish va hakazolar.
	Moddiy texnika	<ul style="list-style-type: none"> - moddiy resurslarga bo'lgan talabni rejalashtirish;



ta'minoti va sotish bo'limi	<ul style="list-style-type: none"> - korxonani materiallar, texnika yoqilg'i va boshqalar bilan ta'minlashni uyushtirish; - shartnomalarni tuzish; - ombor xo'jaligini uyushtirish va hakazolar.
Ishlab chiqarishni boshqaris h bo'limi	<ul style="list-style-type: none"> - korxona, tsex, uchastkalar uchun ishlab chiqarish buyicha kalendar grafiklar tuzish; - ishlab chiqarishni borishini tezkor ravishda tartibga solish; - korxonaning bir maromda ishlashini ta'minlash; - korxonaning tsexlarga xizmat qiluvchi bo'limlari ishini muvofiqlashtirish va hakazolar.
Mahs ulot sifatini nazorat qilish bo'limi	<ul style="list-style-type: none"> - tayyor mahsulot sifatini nazorat qilish; - korxonaga keltiriladigan xom ashyo va materialarning sifatini nazorat qilish; - mahsulotni taqdim etish va hakazolar.

Tegishli funktsiyalarning to'la-to'kis va sifatli bajarilishiga rahbar (menejer), uning o'rinnbosarlari, xizmat ko'rsatish bo'limlari rahbarlari va boshqalar mas'uldirlar. Demak, korxona (firma)ni boshqarishning o'ziga xos aniq funktsiyalar xizmat lavozimi vazifalaridan kelib chiqib, bu funktsiyalarni mazmun-mohiyatini belgilaydi.

Xulosa va tavsiyalar

Boshqaruv funktsiyalarini tadqiqidan kelib chiqqan holda quyidagi xulosani beramiz:

1. Funktsiyalar boshqaruvning hamma bosqichlariga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarga ega bo'lib, boshqaruv apparatining barcha rahbarlari va mutaxassislari faoliyatida mavjud bo'ladi.

2. Funktsiyalar boshqaruvning hamma tomonlarini qamragan funktsiyalar bo'lib, ular boshqaruv tizimini ham vertikal, ham gorizontal qamrab oladi.

3. "Funktsiya" va "vazifa" tushunchalari bir-biridan ajralmas bo'lib, boshqaruvning vazifalariga mos kelishi boshqaruv funktsiyasi kategoriyasining asosiy belgisini tashkil etadi. Vazifa bu yechilishi talab qilinadigan masala bo'lsa, funktsiya - shunday yechimga yo'naltirilgan faoliyat turi.

4. Boshqaruv jarayoni rivojlanishida uning oldiga ma'lum bir vazifalarning qo'yilishi tegishli funktsiyalarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi. Boshqaruvning funktsiyalarini amalga oshirilmagan taqdirda uning vazifalari ham amalga oshmay qoladi.



Boshqaruv funktsiyalarini bajarilishi samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni tavsiya etamiz:

1. Boshqaruv barcha darajalarida mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishni kooperatsiyalashtirish va ixtisoslashtirish, eng yangi texnologiyalarni almashish, tovar aylanishini muvofiqlashtirish, moliya-kredit aloqalarini rivojlantirish vazifalarini bajarilishi nazoratini kuchaytirish orqali mazkur sohadagi tegishli funktsiyalar bajarilish samarasini oshirish.
2. Insonlarning yashash sharoitlari, mehnat va dam olishini yaxshilash, atrof tabiiy muhitni muhofaza etish vazifalarini hal qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni tiklash va ko'paytirishga oid faoliyatni yanada oqilona tashkillashtirish.
3. Boshqaruv funktsiyalari doirasidagi hamkorlik olib borish vazifalarini, shuningdek faoliyat sohasiga doir tuzilgan shartnomalarni yakuniy bajarilishini kuzatish. Hamkorlikda iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishga harakat qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dedajanov B.N. "Menejment". Darslik. –Toshkent.: "Fan ziyosi" nashriyoti, 2022. – 580 b.
2. Dedajanov, B. N., & Kholmirzaeva, K. H. (2021). Managerial Effectiveness: Content, Evaluation and Recommendations. *Account and Financial Management Journal*, 6(5), 2318-2323. <https://doi.org/10.47191/afmj/v6i5.01>
3. Dedajanov, Bahtiyor, and Muhammadniyoz Sobirov. "The essence of innovative activity and analysis indicators." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.3 (2021): 1978-1990. https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=THE+ESSENCE+OF+INNOVATIVE+ACTIVITY+AND+ANALYSIS+INDICATORS%00&btnG=#d=gs_qabs&u=%23p%3Dm7smCiRf3KwJ
4. Lutfulla Xabibullayevich Ubaydullayev, & Bakhtiyor Nabijanovich Dedajanov. (2021). THE DIGITAL ECONOMY: ADVANTAGES AND RISKS. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(01), 153-159. <https://doi.org/10.37547/jcass/volume02issue01-a23>
5. Nabijanovich, D. B. (2022). INNOVATIVE ACTIVITY MANAGEMENT ISSUES. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 3744-3755.
6. Nabijanovich, D. B., & Mamasodikjonovich, M. A. (2021). OBSTACLES TO IMPLEMENTATION AND STRATEGY FORMULATION MANAGEMENT STRATEGY IN BUSINESS AND ISSUES OF ITS



FORMATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(10), 758-770.

7. Нажимов М., Сайдуллаев Ш. Давлат функциялари: Ўқув кўлланма –Т.:ТДЮИ, 2004. -37 б.

